

Badiiy Asarlar Tarkibida Bibliyonimlar Qo'llanishi

*Jonbo'tayeva Zumradxon Abdujabborovna*¹

Tilshunoslik fanida atoqli otlarning o'rganilishi salmoqli o'rin egallaydi. Bu sohadagi asosiy nazariy ma'lumotlar jahon miqiyosida A.V. Superanskaya, N.V. Podolskaya, V.A. Nikonov, V.D. Bondaletov, V.I. Suprin kabi olimlar ilmiy ishlarida, o'zbek tilshunosligida esa H. Xasanov, T. Nafasov, E. Begmatov, Z. Do'simov, N. Uluqov, X. Maqsudova, Y. Avlaqulovlarning ilmiy tadqiqotlarida batafsil o'rganilgan.

X. Maqsudova o'z dissertatsiyasida atoqli otlar ichki tuzilishini quyidagicha tasniflaydi: *antroponimlar* – odamlarning ism, familiya va taxalluslari nomlari *toponimlar* - joy nomlari, geografik obyektlar

teonimlar - diniy- ilohiy tushunchalar bilan bog'liq nomlar

zoonimlar - hayvonlarning nomlari (laqablari)

astronimlar - osmon jismlari nomlari

kosmonimlar – tashqi fazo qismlari va burjlar nomlari

fitonimlar – o'simliklar nomlari

xrononimlar - tarixiy voqealar bilan bog'liq bo'lgan davrlar nomlari

ideonimlar – ma'naviy-madaniy obyektlar nomlari².

Biz bugungi maqolamizda ideonimlar tarkibiga kiruvchi bibliyonimlar haqida so'z yuritmoqchimiz. Ideonimga A.V. Superanskaya tomonidan shunday ta'rif berilgan: "*ideonim* insonning aqliy, g'oyaviy va badiiy faoliyati mahsuli bo'lgan narsalar bir donasining atoqli otidir."³ Ideonimlar guruhiga ktematonim, dokumentonim, xrononim, geortonim, gemeronim, bibliyonim, artionim kabilarni kiritamiz. Bu tasnif orasida bibliyonimlar alohida o'ringa ega. Bibliyonim badiiy, ilmiy, ommabop yoki muayyan sohaga oid asarlar, qo'llanma, darslik va lug'atlar, ya'ni bosma nashr manbalarining nomi.⁴

Bu – muallifning o'quvchiga qaratilgan mavzuni, muammoni, tasvirni, asar syujeti istiqboli bilan tanishtirish uchun ishlatilgan birinchi so'z U asarning ochqich kaliti desak ham adashmagan bo'lamiz. Badiiy janrining xususiyatlari, uning ichidagi voqealar rivoji asar sarlavhalarida o'z ifodasini topadi. Sarlav- halar asardagi voqea, qahramon, mazmunga ishora qiladi. Barcha zamonlar -ning o'z ijodkorlari xalqning urf-odatlarini, maqsad-intilishlari, orzu- armonlari- ni ifodalab keladi. Har qanday badiiy, ilmiy, diniy, siyosiy asarga berilgan nom bibliyonim (yunoncha *bibliov* - *kitob* + *onoma* – *atoqli ot*) deb yuritiladi. Bibli -onimlar yozma nutqning muhim elementi sifatida o'zi nomlayotgan u yoki bu badiiy asarning tarkibiy qismi sanaladi. Chunki u, birinchidan, o'zi ifodalayotgan asarning nomi, atamasi bo'lib xizmat qilsa, ikkinchidan, shu asar mazmunini belgi lab berish vazifasini ham bajaradi. Birinchi galda asar nomi o'quvchi diqqatini o'ziga tortadi. Asar o'qib chiqib bo'lingandan so'nggina o'sha asar sarlavhasi ma'nosi, unga yuklangan mazmun to'la va aniq reallashadi. Masalan, yozuvchi

¹ Turon Xalqaro Universiteti filologiya kafedrasida o'qituvchisi

² X. Maqsudova. Tilning onomastik qatlami genezisi va lingvokulturologik jihatlari. Andijon 2023.

³ Суперанская А.В. Общая теория имени собственного / А.В. Суперанская. – М.: Наука, 1973.; Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1978.; Никонов В. А. Имя и общество. – М.: Наука, 1994; Супрун В. И. Художественно-эстетический потенциал ономастического поля русского языка // Лингвистика на рубеже веков: актуальные проблемы и новые подходы: коллективная монография. – Волгоград: Изд-во ВГСПУ «Перемена», 2012.; Бондалетов В. Д. Русская ономастика: учеб. пособие для студентов. – М.: Просвещение, 1998.

⁴ Хамроева Х. Ўзбек миллий рақс санъати терминлари тадкиқи: филол.фан доктори (DSc) дисс... Тошкент, 2021. – С. 184



Muhammad Alining “*Ulug’ saltanat*” tarixiy tetralogiyasi ulug’ sohibqiron Amir Temur saltanati tasviriga bag’ishlangan. Bu asar to’rt kitobdan iborat bo’lib, har bir kitob (tarixiy roman) Amir Temurning o’g’illari nomi (“*Jahongir Mirzo*”, “*Umar shayx Mirzo*”, “*Mironshoh Mirzo*”, “*SHohruh Mirzo*”) bilan yuritiladi. Yoki yozuvchi Shuhratning “*Shinelli yillar*” romanining nomlanishi ham qiziqarlidir. O’quvchi bu asarning nomini eshitishi bilan asar voqealari ikkinchi jahon urushi yillarida kechishini aniq tasavvur etadi. Xuddi shuningdek, yozuvchi Said Ahmad ning uch kitobdan iborat “*Ufq*” trilogiyasi (“*Qirq besh kun*”, “*Hijron kun -lari*”, “*Ufq bo’sag’asida*” romanlari), “*Jimjitlik*” romani, “*G’ildirak*” hajviy qissasi nomlari ham chuqur mazmunga ega. Asarga nom qo’yish o’ziga xos bir san’atdir. Chunki nom asar mazmuni, ma’nosidan kelib chiqib qo’yiladi. Masalan, yozuvchi Erkin Samandar o’z tarixiy romanlaridan birini “*Tangri qudug’i*” deb nomlagan. Bu nomning mazmun-mundariyasi haqida asarda quyidagi fikrlarni o’qiydiz: “*Som alayxa-s-salom iltijosi bilan Xiva qal’asidan avval g’oyibdan mujda qilin gan Tangri qudug’i hamisha chuchuk suvga serob edi. Xivaning birin -chi g’ishti uning suvi bilan qo’yilgan. Oqshayx bobo olovxonasining loyi uning suviga qorilgan. Qal’a paydo bo’lganidan beri xivaliklar hayitlarni Tangri qudu- g’i suvini totishdan boshlaydilar, go’daklarga ona sutidan keyin uning suvi ichiri- ladi, o’likni uning bilan yuvishni farz deb biladilar, uylanayotgan yigit jo’ralari bilan to’ydin oldin quduqqa boradi, uni tavof etib zilol tomchilarini hovuchiga olib ichadi, kelinga bir kosa Tangri suvidan olib boradi. SHunday muqaddas quduqda bugun suv o’rnida qon... Odamlar bunday vahshatni ko’rgan ham, eshitgan ham emaslar...*”⁵

Adiblarimizdan Abdulla Qodiriy, Cho’lpon, Fitrat, Oybek, G’afur G’ulom, Abdulla Qahhor, Said Ahmad, Odil YOqubov, Pirmuqol Qodirov, Asqad Muxtor, SHukur Xolmirzaev, O’tkir Hoshimov, Tog’ay Murod, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov kabilar asarga nom qo’yish ishiga juda mas’uliyat bilan yondoshganlar.

Bibliyonimlar badiiy matnda nominativ, farqlash, informativ kabi bir qancha funksiyalarni bajarishga xizmat qiladi. Bu jihatdan badiiy asar bibliyonimlari gazeta sarlavhalariga juda yaqin turadi. O’zbek tilshunosligida ideonimlar va bibliyonimlar endigina o’rganilmoqda.

Biz bibliyonimlar nomlanishini quyidagi asosda tasniflashga harakat qildik: 1) yakka turdosh ot so’z turkumidan iborat bibliyonimlar: O’.Hoshimov “O’zbeklar”, Mirmuhsinning “Me’mor”, Oybekning “Bolalik”, Murod Muhammad Do’stning “Lolazor”, A.Qahorning “Sarob” kabi asarlari ; 2) yakka atoqli ot so’z turkumidan iborat bibliyonimlar: Fitratning “Abulfayzxon”, Oybekning “Navoiy”, M.Shayxzoda “Jaloliddin Manguberdi”, M.Osimning “To’maris”, O.Matjonning “Beruniy” kabi asarlari; 3) qaratqich kelishigidagi otli birikma shaklidagi bibliyonimlar: O’.Hoshimovning “Dunyoning ishlari”, S.Ayniyning “Sudxo’rning o’limi”, M.Osimning “Ajdodlarimiz fojiasi”, G.Markesning “Yolg’izlikning yuz yili”, A.K.Doyning “Sherlok Xolms sarguzashtlari” , M.Egamberdiyevning “Sariq ajdar hamlasi” kabi asarlari; 4.) sifatlovchi aniqlovchili birikma shaklidagi bibliyonimlar: .Xolmirzayev- ning “Qora kamar”, O’.Hoshimovning “Tushda kechgan umrlar”, A.Qodiriy -ning “O’tkan kunlar”, Oybekning “Qutlug’ qon”, P .Qodirovning “Yulduzli tunlar” kabi asarlari ; 5) uyushiq bo’laklar asosida hosil qilingan bibliyonimlar: Cho’lponning “Kecha va kunduz” , S.Ahmadning “Yo’qotganlarim va topganlarim”, O.Muxtorning “Ayollar mamlakati va saltanati”, Tolstoyning “Urush va tinchlik”, M.Bulgakovning “Usta va Margarita”, Dostoyevckiyning “Jinoyat va jazo” kabi asarlari ; 6) Sodda gap shaklidagi bibliyonimlar: O’.Hoshimovning “Bahor qaytmaydi”, “Shamollar esaveradi”; T.Murodning “Bu dunyoda o’lib bo’lmaydi”, Li Myon Bakning “Mo’jizalar sodir bo’lmaydi”kabi asarlari; 7) sarlavhasida undalma qatnashgan bibliyonimlar: O.Yoqubov “Qayerdasan,Moriko” , T.Malik “Alvido...bolalik”, Xill Syuzen “ Men qo’rg’ondaman ,qirol” kabi asarlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Asar voqealari kitobxon tasavvurida to’laqonli aks etishi uning sarlavhasi bilan bog’liq. Nomlashda tildagi metafora, metonimiya, sinekdoxa, ironiya, toponimiya va gidronimiya kabi ma’no ko’chish usullaridan foydalaniladi.Bu ma’no ko’chishlari asar mazmuni va qahramon ruhiyatini ifodalab keladi. Masalan, “*Qutlug’ qon*” sarlavhasidagi “qutlug” so’zi xosiyatli, muborak ma’nolarini bildiradi.⁶ Taniqli yozuvchi Oybek o’z qahramoni Yo’lchining

⁶ “O’zbek tilining izohli lug’ati”



umri zoye ketmaganligini, yangi davrni boshlab berishini ko'zlab, shunday nom qo'ygan. "Bu qon eng qutlug' ...eng sof'qon". Oybek Tanlangan asarlar.

Sh.Xolmirzayevning "**Qora kamar**" deb atalishiga sabab shuki, voqealar Surxondagi kamarlardan birida bo'lib o'tadi. Xurrambek joylashgan kamarni Qora kamar deb atay boshlashadi. Qora rang yovuzlik timsoli. Istilochilar xalqqa Xurrambeklarni shu qadar yomon ko'rsatishgandiki, xalq ulardan nafratlanib, "bosmachilar" o'rnashgan joyga "qora" so'zini qo'shib aytishardi.

Zulfiyaning "**Xotiram siniqlari**" dostoni mustaqillik davrining mahsuli bo'lib, unda istiqloq dil-dildan ulug'langan. Shoirasarda umri davomida o'zi boshidan kechirgan yaxshi va yomon kunlarini eslab, hayot va jamiyat taraqqiyoti haqida, baxt va badbaxtlik to'g'risida teran poetik mulohaza yuritgan. Sho'rolar davridagi achchiq hayot qoldirgan dard-u alamlarini, mahzun xotiralarini doston misralari qat-qatiga to'kib solgan. Bundan tashqari bibliyonimlar badiiy asarlar tarkibida ham ko'p ishlatiladi. Masalan, O'.Hoshimovning "*Nur borki, soya bor*" romanida asar qahramoni Sirojiddin tomonidan "qora chigirtka" deb nomlangan qiz imtihondan olgan bahosidan norozi bo'ladi va Qilich Valiyev tomonidan qayta imtihon qilinganida, *Berejkovning "Tehron -43 -yil"* kitobidan ko'p dalillar keltiradi. Mirmuhsinning "*Me'mor*" romanida shunday parcha keltiriladi:

"Qorailon vahshati yuragiga larza solgan Nizomiddin oshnalariga, hurufiya to'dasi haqida aniq bir so'z aytmay, Mirzoning piri-Isomiddinga qo'l bergani, yosh amirzoda *Jaloliddin Rumiyning "Masnavi ma'naviy"* asarini o'qigani, u hazratni o'z ustozini deb bilish sharafiga muyassar ekani, *Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston"*, *Abu Ali ibn Sinoning "Al-Qonun"* kitoblarini qattiq mutolaa qilishi ...ni aytish bilan cheklanadi". (87-b).

Shuhratning "*Oltin zanglamas*" romanida esa mana bunday jumlar bor: "...Mirsalim kutganidek, Sodiq kitoblarga qiziqib qoldi. Lekin" didi ayvonning taxmoniga soldirgan surati bo'lsa, kitobi nima bo'lardi", deb o'yladi. Shunday bo'lsa ham so'radi:

- Qanday kitoblar ekan? Olib kela qolmabsiz-da.
- Bitta – yarimtas bu almisoqdan qolgan kitoblarni nima qilib ko'tarib yuribdi demasin, dedim, Biri "*Boburnoma*". Qozon bosmasi, yana biri *German Vamberining "Sayohatnoma"si*". (34-b)

Bu asarlar nomining keltirilishi orqali yozuvchiar qahramon holatini batafsilroq ochib berishga harakat qilgan.

Boshqa ko'plab badiiy asarlar tarkibida ham ko'plab bibliyonimlarni uchratishimiz mumkin. Bu holat xalqimizning badiiy asarlarga munosabati qanchalar yaxshi ekanligini bildirgan hamda badiiy asarlarda o'z aksini topgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://sanstv.ru/dict/идеонимы>
2. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного / А.В.Суперанская. – М.: Наука, 1973.; Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. – М.: Наука, 1978.; Никонов В. А. Имя и общество. – М.: Наука, 1994; Супрун В. И. Художественно-эстетический потенциал ономастического поля русского языка // Лингвистика на рубеже веков: актуальные проблемы и новые подходы: коллективная монография. – Волгоград: Изд-во ВГСПУ «Перемена», 2012.; Бондалетов В. Д. Русская ономастика: учеб. пособие для студентов. – М.: Просвещение, 1998.
3. Xamroyeva X. O'zbek milliy raqs san'ati terminlari tadqiqi. filol. fan. doktori(DSc) dicc...Toshkent,2021-C.184.
4. "O'zbek tilining izohli lug'ati"

